

**YER RESURLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH JARAYONIDA VUJUDGA
KELGAN MUAMMOLAR**

¹G‘ofirov Muzaffar Jumayevich, ²Ulasheva Muxayyo Yusuf qizi

¹Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti katta o‘qituvchisi

²Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti talabasi

¹gofirov1982@mail.ru, ²gulbaxorkarimova1@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10805565>

Annotatsiya. Yerlar sifatining yomonlashish jarayoni, ular hosildorligining pasayishi – yerlar degradatsiyasi deyiladi. Qurg‘oqchil iqlim sharoitida yerlar degradatsiyasi ko‘p hollarda cho‘llanish jarayoniga o‘tib ketadi, bunda hosildor yer sahroga aylanadi. Yerlar degradatsiyasi - tuproqning funksiyasini o‘zgartiruvchi, uning xossalarini sonini va sifatini kamaytiruvchi, unumdorligini pasaytiruvchi va yo‘qotuvchi jarayonlar majmuasidir.

Kalit so‘zlar: yer, cho‘llanish, degradatsiya, irrigatsiya, resurs, noqonuniy, raqamli texnologiy.

Аннотация. Процесс ухудшения качества земель, снижения их продуктивности называется деградацией земель. В засушливом климате деградация земель часто приводит к опустыниванию, когда плодородные земли превращаются в пустыни. Деградация земель представляет собой совокупность процессов, которые изменяют функцию почвы, снижают количество и качество ее свойств, снижают ее продуктивность и утрачивают.

Ключевые слова: земля, опустынивание, деградация, орошение, ресурс, незаконный, цифровые технологии.

Abstract. The process of deterioration of land quality, reduction of their productivity is called land degradation. In arid climates, land degradation often leads to desertification, with fertile land turning into desert. Land degradation is a set of processes that change the function of the soil, reduce the quantity and quality of its properties, reduce its productivity and lose it.

Keywords: land, desertification, degradation, irrigation, resource, illegal, digital technologies.

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan keyin barcha sohalar bo‘lgani kabi yerga, yer resurslariga bo‘lgan munosabat ham tubdan o‘zgardi. Respublikamizning mustaqilligigacha bo‘lgan davrda ko‘p yillar davomida yerdan xo‘jasizlarcha, munosib bo‘lmagan tarzda foydalanish jarayonlariga, mexanizmlariga barham berilib, yerga mulk sifatida qarash shakllandi. Biryoqlama xo‘jalik yuritish mexanizmi ko‘pgina muammolarni keltirib chiqarganligi sababli, ularni bartaraf etish maqsadiga mo‘ljallangan dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishni talab etmoqda.

Markaziy Osiyoda yerdan barqaror foydalanish bo‘yicha ko‘plab mamlakatlar qatnashgan loyiha doirasida amalga oshirilgan tahlillarga ko‘ra, yerlar sifatining buzilishi muammosining vujudga kelishi sabablari quyidagilardan iborat:

- yerlarga, jumladan, sug‘orilishi qiyin bo‘lgan yerlarda ham, keng miqyosdagi irrigatsiyaning rivojlantirilishi va paxta yakkahokimligi tabiiy ekotizim imkoniyatlariga sezilarli darajada talafot yetkazdi, bugungi kunda mavjud texnologiyalar yer degradatsiyasi oqibatlarini bartaraf etishga qodir emas. Natijada yer va suv resurslarining mahsuldorligi qisqardi;

- shu kunga qadar regional suv resurslarini boshqarish va umumiy suv havzalariga ega mamlakatlarning teng foyda ko‘rishini ta‘minlashning samarador mexanizmlari amaliy qo‘llanmay kelinyapti;

- o'tish davridagi byudjet muammolarining ulkan suv xo'jaligi infrastrukturasi texnik xizmat ko'rsatish va modernizatsiyalashga salbiy ta'siri yerlarning unumdorligini sezilarli darajada qisqartirdi va deyarli tugab borayotgan suv resurslariga talabni orttirdi;

- kam ta'minlanganlik resurslar degradatsiyasiga sababchi bo'lmoqda. Suv yetishmasligi va moliyaviy qiyinchiliklar fermerlarni o'z iqtisodiy manfaatlarini qondirish uchun o'z strategiyalarini qo'llashlariga majbur qilmoqda (oqava suvlardan foydalanish, yaylovlarni quritish shular jumlasiga kiradi).

Yuqoridagi ta'kidlab o'tilgan muammolarni hal etmay turib yer resurslaridan samarali, oqilona foydalanishni barqaror rivojlantirish mumkin emas.

Yerlar sifatining yomonlashish jarayoni, ular hosildorligining pasayishi – yerlar degradatsiyasi deyiladi. Qurg'oqchil iqlim sharoitida yerlar degradatsiyasi ko'p hollarda cho'llanish jarayoniga o'tib ketadi, bunda hosildor yer sahroga aylanadi.

Yerlar degradatsiyasi - tuproqning funksiyasini o'zgartiruvchi, uning xossalarini sonini va sifatini kamaytiruvchi, unumdorligini pasaytiruvchi va yo'qotuvchi jarayonlar majmuasidir.

Yerlar degradatsiyasining quyidagi tiplari mavjud: texnologik (uzoq muddat foydalanish natijasida); eroziya; sho'rlanish; botqoqlanish; ifloslanish va cho'llanish.

Cho'llanish – o'zlashtirilgan unumdor sug'oriladigan yerlarning o'simliklari va unumdorligi yo'qotilgan suvsiz va xayotsiz cho'lga aylanishidir.

Yerlar degradatsiya ko'zga yaqqol tashlanishi mumkin: -jarliklar yoki sho'rxok yerlar; chorva yuradigan sonsanoqsiz so'qmoqlar bilan kesilib ketgan hech narsa o'smaydigan yonbag'irlar; o'rmonlari kesilgan katta hududlar; chang bo'ronlari yoki harakatlanuvchi qumlar ko'rinishida. Yerlar degradatsiya deyarli sezilmaydigan bo'lishi ham mumkin: -qaysidir uchastkalardagi o'simliklar boshqalariga qaraganda kasal yoki zaifroq ko'rinadi, yoki yaylovlar begona o'tlar bilan qoplanib ketgani uchun yaroqsiz holatga keladi

Yerlar degradatsiyasi tuproq tarkibini buzadi va suv, shamol eroziyasi, botqoqlashish, sho'rlanish, shuningdek tuproqning oziq xususiyatlarining barham topishiga olib keladi. Yerlarning degradatsiyasiga olib keluvi bevosita sabab yer resurslaridan muqobil foydalanmaslik, qishloq xo'jaligining beqaror faoliyati, yaylovlar va o'rmonlarga qiron keltirishdir.

Markaziy Osiyo mamlakatlari tashabbusi bilan yer resurslaridan foydalanishni barqaror boshqarishni qo'llab-quvvatlash yo'li bilan yerlar degradatsiyasiga qarshi mamlakatlararo kurash dasturi ishlab chiqilgan. Respublikamizda bu borada milliy dastur yaratilgan bo'lib, uning asosiy maqsadi yerdan foydalanish boshqaruviga jalb etilgan barcha manfaatdor tomonlarning yer resurslaridan barqaror foydalanish bo'yicha jipslashtirish va bu hamkorlikni kuchaytirishdan iborat. Mazkur maqsad amalga oshsa, ekotizimlarning barqaror va yaxlitligiga erishiladi, respublikada turmush farovonligi o'sadi. Milliy dasturda qayd etilgan yerlar degradatsiyasi muammolari quyidagilarni taqozo etadi:

- mahalliy, regional va milliy miqyosda potensialni kuchaytirish;
- jamaotchilikning bu boradagi bilim va ma'lumotlarini oshirish;
- infratuzilma va bozor mexanizmlarini yaxshilash;
- mahalliy va milliy strategiyalar, rejalashtirish tizimi hamda barqaror yerdan foydalanish siyosatini integratsiyalash;
- yerlarni inventerizatsiyalash, monitoringi va baholash tizimini yaxshilash;
- agrotizimlarni tiklash va haydaladigan yerlardan foydalanish amaliyotini yaxshilash;
- o'rmonlarni saqlash;

- yaylovlarni saqlash va ulardan foydalanishni boshqarish;
- tabiiy resurslardan foydalanishning integrasion boshqaruvi va suv sifatini yaxshilash;
- Orol dengizi qurishi salbiy oqibatlarini yumshatish.

Chuqur iqtisodiy mohiyatga ega bo‘lgan “yerdan barqaror foydalanish” tushunchasi bilan yerlardan rasional va samarali foydalanish tushunchalari chambarchas bog‘liq. Yerlardan rasional va samarali foydalanish tushunchalari barqaror yerdan foydalanishning tarkibiy qismlaridan sanaladi va jamiyatning barcha sohalari o‘rtasida yer resurslarini optimal taqsimlanishiga imkon beradi.

Yerdan foydalanish samaradorligi iqtisodiy kategoriyadir, lekin ushbu tushuncha faqatgina iqtisodiy va xo‘jalik ma‘nolari bilan cheklanib qolmaydi. U ijtimoiy, rekreasion va tabiatni muhofaza qilish tushunchalarini ham qamrab oladi. Yerdan foydalanishning har bir jihatiga ma‘lum bir turdagi: ijtimoiy, iqtisodiy, ekologogik samaradorlik xosdir. Agar yerdan foydalanish faqat bitta jihat nuqtai nazaridan qaraladigan bo‘lsa, unda faqat ma‘lum bir turdagi samaradorlikka erishiladi. Bunda ma‘lum bir turdagi samaradorlik yerdan foydalanishning boshqa jihatlariga zarar keltirish hisobiga amalga oshadi, boshqa jihatlarining talablari yerdan foydalanishning asosiy sharti sifatida qo‘llanilmadi.

“Yerdan barqaror foydalanish” iqtisodiy kategoriya sifatida o‘z mazmun mohiyatiga yer resurslaridan foydalanishning bozor tamoyillarini va mazkur murakkab jarayonning boshqaruvini ham o‘z ichiga oladi. Yuqorida aytilganlardan kelib chiqadiki, “yerdan barqaror foydalanish” iqtisodiy kategoriya bo‘lib, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik mazmunga ega bo‘lib, ular uzviy bog‘liqdir. Jamiyatning o‘z ehtiyojlarini qondirish maqsadida yer resurslaridan foydalanishining obyektiv zarurati bir vaqtning o‘zida tabiatga salbiy ta‘sir ko‘rsatilishiga olib keladi. Bu holat bir tarafdin, yerdan xo‘jalik maqsadlarida foydalanish, moddiy ne‘matlarni ishlab chiqarishni oqilona miqdorda cheklash, ikkinchi tarafdin, iste‘mol qilingan resurslarni qayta ishlab chiqarilishini taqozo etadi. “Yerdan barqaror foydalanish” mazmunan ko‘p tarkibli, murakkab bo‘lib, yerlardan rasional va samarador foydalanish, shuningdek, yerdan foydalanishning bozor tamoyillarini o‘z ichiga oladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakat iqtisodiyotining asosiy yirik tarmoqlariga moddiy negiz hisoblangan yer resurslaridan samarali foydalanishni barqaror rivojlantirishni ta‘minlashning huquqiy va tashkiliy mexanizmlarini takomillashtirish bugungi kundagi eng muhim masalalardan biridir.

Hududlarda yer qonunchiligiga rioya qilmaslik, yer uchastkalaridan maqsadsiz va samarasiz foydalanish, jumladan noqonuniy qurilmalar qurish, shuningdek, yerlarni o‘zboshimchalik bilan egallash holatlari uchrayotganligi bu borada raqamli texnologiyalardan keng foydalanish orqali yagona nazorat tizimini joriy etish hamda vakolatli idoralar o‘rtasida hamkorlikni yanada kuchaytirishni taqozo etadi.

REFERENCES

1. O‘zbekistan Respublikasi "Yer kodeksi". T.: O‘zbekistan, 1998
2. Bobojonov A.R., Raxmonov K.R., G‘ofirov A.J. Yer kadastr. Darslik. T.: TIMI, 2008
3. Avezbayev S.A., Volkov S.N. “Yer tuzish iqtisodi”. Darslik. T.: Yangi asr avlodi, 2002.

4. 4. D.O.Himmataliyev, J.O.Hakimov, SH.S.Sharipova, M.F.To‘rayev, Z.Q.Murodova “Formation of didaktik competence of students as a pedagogical problem” PSYCHOLOGY AND EDUCATION Scopus international journal № 2021, yanvar.
5. M.J.G‘ofirov “Problemi regulirovaniya zemelnix reform i zemelnix otnosheniy v usloviyax rinochnoy ekonomiki” Mejdunarodniy nauchniy jurnal “Vestnik nauki” Vipusk №10 (55) Tolyatti 2022 g.
6. M.J.G‘ofirov “Muhandislik yo‘nalishi talabalarining umumkasbiy tayyorgarligiga quo‘iladigan talablar” International conference on educational innovations and / applied sciences 2022/8 15-oktabr
7. M.J.G‘ofirov “Kompetentli yondashuv asosida bo‘lajak muhandislarning tayyorgarligini rivojlantirish” International conference on educational innovations and / applied sciences 2022/8 15-oktabr